O‘QUV DASTURLARI TA’LIM SIFATINING MUHIM OMILI SIFATIDA

Mallayeva Matluba Abdumalikovna
ToshDO‘TAU 2-kurs mustaqil tadqiqoqtchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767931

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada adabiyot fanidan yaratilgan o‘quv dasturlarining taraqqiyot bosqichlari, yutuq va kamchiliklari qiyosiy planda tahlil etilgan. Ta’lim standartiga xos xususiyatlar tasnif qilinib, muayyan xulosalar chiqarilgan.

KALIT SO‘ZLAR

ta'lim sifati, o‘quv dasturlari, o‘quv adabiyotlari, baholash, davlat ta’lim standartlari

АННОТАЦИЯ

В статье в сравнительном плане проанализированы этапы развития, достижения и недостатки образовательных программ, созданных в области литературы. Классифицированы характеристики образовательного стандарта и сделаны определенные выводы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

качество образования, образовательные программы, учебная литература, оценка, государственные образовательные стандарты

ABSTRACT

In this article, the stages of development, achievements and shortcomings of educational programs created in the field of literature are analyzed in a comparative way. Characteristics of the educational standard were classified and certain conclusions were drawn.

KEY WORDS

quality of education, educational programs, educational literature, assessment, state education standards

Dunyo olimlari o‘rgatish va o‘rganishga oid tadqiqotlarda ta’lim sifati to‘rt muhim komponent (tarkib)dan iborat ekanligini ta’kidlaydilar. Ular: o‘quv dasturlari, o‘quv adabiyotlari, o‘qitish usullari va baholash. Mazkur komponentlar o‘zaro uzviylikda, bir-biri bilan aloqadorlikda harakatlansagina ta’lim sifati kutilgan natijani berishi mumkin.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti uchun amalga oshirilayotgan harakatlar asosida ham ta’limni rivojlantirish, uni dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatorida

taraqqiy ettirish vazifasi turishini davlatimiz rahbari tomonidan ko‘p marotaba ta’kidlab o‘tilgan. Ta’lim dasturlari, o‘quv adabiyotlari va baholash ushbu ta’kidlarning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Jumladan, ta’lim sifatini dunyo miqyosida rivojlantirish, “o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish” ga oid vazifalar “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” da ham belgilab qo‘yildi. Davlat rahbarining milliy o‘quv dasturlarini takomillashtirishga qaratilgan qaror farmonlarini qabul qilinishi uning ta’lim sifatini rivojlantirishdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Masalan, 2019-yil 29- apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari O‘zbekistonda barcha fanlardan, shu jumladan, adabiyot fanidan ham zamonaviy o‘quv dasturlarini yaratish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilingan.

Ma’lumkin, XX asrning 1991- yillariga qadar, adabiy ta’limga oid me’yoriy hujjatlar mazmun mohiyatida sovet mafkurasi, uni yoshlarga singdirish vazifasi belgilangan. Lekin O‘zbekiston yangi davrni boshlagan kundan barcha sohalar qatorida ta’limni milliy manfaatlar, umumbashariy qadriyatlar asosida isloh qilish uchun ham harakatlar boshlanganligi ma’lum. Jumladan, davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda adabiyot darsliklari mustaqil O‘zbekiston manfaatlariga xizmat qiladigan yangicha yondashuvlar, tamoyillar bilan boyitildi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasiga umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida” 1998-yil 13-maydagi 203-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan, 1998-1999- o‘quv yillarida tajriba sinovdan o‘tkazilgan umum o‘rta ta’limning davlat standtarlarini tasdiqlash to’g’risidagi qarori e’lon qilidi. Ushbu qarorda 1999-2000 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlari bilan birgalikda bosqichma-bosqich joriy etish masalasi ko‘tarilgan edi. Mazkur ta’lim standarti Ona tili, Adabiyot va O‘zbek tili (ta’limi boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) fanlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligining “Ta’lim taraqqiyoti” nomli Axborotnomasi maxsus (1-son, ta’kid bizniki,M.M) sonida e’lon qilingan.[1]

[1] Таълим тараққиёти. 1- махсус сон.Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури – Тошкент.: ”ШАРҚ” нашриёт - матбаа концерни, 1999.– 153-б.

Har qanday o‘quv dasturi davlat ta’lim standartlarida belgilangan o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida shakllantiriladi. Davlat ta’lim standarti (DTS) esa ta’lim tarbiya muassasasi ma’lum bosqichining bitiruvchilari muayyan o‘quv fani (jumladan, Adabiyot) yuzasidan egallashlari shart bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va ma’naviy xislatlarning eng quyi miqdorini ilmiy asoslovchi rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat o‘quvchilarning adabiyot fandan olgan bilimlarini “nazorat” qiladi, “kuzatadi” va muayyan xulosalar “chiqaradi”. Adabiyot fanining standarti va o’quv dasturlari boshqa fanlardan farq qiladi. Aytaylik, tabiiy yoki aniq fanlarga doir ta’lim standartlarida bilim, malaka yoki ko’nikma muhim hisoblansa adabiyot fanida o’quvchining emotsional (hissiy) intellekt (birovning dardini his qilish, tuyg’ularinini hurmat qilish kabi insonning hislari va tuyg’ulari bilan bog’liq tushunchalar) ini shakllantirishda ahamiyatlidir. Bundan tashqari o‘quvchi Adabiyot fanidan egallashi kerak bo’lgan bilim, ko‘nikma va malakalari o‘quvchilarning umri davomida ast qotishi, mash’ala vazifasini bajarishi mumkin.

1999- yilda qabul qilingan Davlat ta’lim standartida adabiyotni estetik-ma’anviy yo‘nalishdagi o‘quv fani tarkibiga kiritilgan. Chunki adabiyotni tarbiyalanuvchi ma’naviyati, qalbini va tuyg’ularini shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida tavsiflangan. Ushbu davlat ta’lim standarti va dasturining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiy ta’limi mazmuni va ko‘rsatkichlari” bo‘limida umumiy o‘rta maktab bitiruvchisining adabiyot fanidan shakllantirilishi lozim bo‘lgan standat va ko‘nikmalarning o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan. Jumladan,

-badiiy matnni to‘g’ri, tez va ifodali o‘qishi;

-o‘rganilgan badiiy asar qahramoni holatini his etishi va hissiyotini o‘zgalarga muayyan darajada yetkaza olishi;

-o‘rganilgan badiiy asarning qahramonlariga xos eng muhim xarakter xususiyatlarni farqlashi;

- badiiy asar qahramonlari hatti-harakatlari va tuyg’ulariga o‘z munosabatini bildira olishi;

-o‘rganilgan badiiy asardagi eng yorqin badiiy tashbehlarni, ifodalarni payqash;

-o‘rganilgan badiiy asardagi yorqin obrazlar va porloq tashbehlarni payqash va ular haqida fikr bildira olish;

-har qanday badiiy asarga avvalo estetik hodisa sifatida qarash, va h.k[2].

[2] Tadqiqotimizning hajmi va maqsadidan kelib chiqib, 1999-yilda Adabiot fanidan talab qilingan barcha ko‘nikmalarni berishni lozim topmay ushbu faslga qo’yilgan vazifalar asosida ayrimlarini tahlilga tortish bilan cheklandik- M.M.

Yuqoridagi qaydlardan ma’lum bo‘ladiki Adabiyot fanidan bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikmalar, (adabiy ko‘rsatkichlar) fan yuzasidan belgilab berilgan eng muhim korsatkichlar imkon darajasida qamrab olingan. Masalan, o‘quvchining adabiyot nazariyasi, badiiy asarni tahlil qilish, sujet, obraz, tasvir vositalarni tushunish, anglashga doir hamda badiiy va hayotiy voqelikni qiyoslash, badiiy asar voqealarini o‘quvchi hayotida sodir bo‘lgan hodisalar bilan solishtirishga doir ko‘nikmalar bugungi kun uchun ham juda muhim, o‘quvchining hayotiy ehtiyojlari uchun zarur ko‘rsatkichlardir. Ammo, ayni paytda ushbu adabiy ko‘rsatkichlar orasida mavhum, aniq baholash mumkin bo‘lmagan ko‘rsatkichlarni ham uchratish mumkin. Masalan, “sahna asarini tomosha qilish, qo‘shiqni tinglash malakasini egallashi va bu san’at turlarining jozibasi manbalarini ko‘rsata olish” ko‘nikmasida “qo’shiqni tinglash malakasini egallashi” jumlada noaniqlik kuzatiladi. O‘quvchi dunyoni idrok qilish yoshidan boshlab musiqaga ham oshno bo‘lib ulg’ayadi. Unda o‘z o‘zidan musiqa tinglash, musiqa mohiyatini anglash, musiqada aks etgan joziba, mazmun mohiyatni tushunish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Shu nuqatai nazardan yuqorida qayd etilgan adabiy ko‘nikmalada aynan nima nazarda tutilayotgani va bu o‘quvchiga nima berishi mumkinligi, bizning nazarimizda, ochiqlanmagan. Yoki yana ushbu adabiy ko‘rsatkichlarda bitiruvchi o‘quvchi “har qanday ish qog’zolarini qiynalmay to‘ldira olishi lozim” ligi ham qayd etiladi. Mazkur adabiy ko‘rsatkichda adabiyotga xos ko‘nikma emas balki boshqa fan, masalan, ona tiliga oid ko‘nikmani shakllantirishga xizmat qilayotgandek tasavvur uyg’otadi. Qolaversa, bu adabiyot fani tarkibida sanalayotgan bu ko‘rsatkichni ham mavhum, ob’yektiv, aniq baholanishi mumkin bo‘lmagan ko’nikmalar qatoriga kiritish mumkin. bo’ladi. Chunki ish qog’ozi deyilganda qanday ish qog’ozlari nazarda tutilayotgani, “to’ldira olish” brikmasida ham noaqniqlik mavjudligi ham aniq ravshan ko‘rsatilmagan.

Olimlar Z. Mirzayeva va K. Jalilovlarning “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” darsligida 2022-yilda YUNESKO bilan hamkorlikda tayyorlangan Milliy o‘quv dasturi yaratilishiga qadar mavjud, amalda bo‘lgan adabiyot bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari[3] tahlil qilingan. Mualliflar ushbu ta’lim standartiga tanqidiy yondashib, adabiyot faniga xos bo‘lgan kompetensiyalarga yetarlicha e’tibor berilmagani, oqibatda adabiyot o‘zining mustaqil fan sifatida mavqeyini yo‘qotib, boshqa fanlarda (ona tili, chet tili, ijtimoiy fanlar) o‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi fanga aylanib qolgani ta’kidlanadi va fikrlarini aniq misollar bilan dalillashga harakat qiladi. Jumladan, “badiiy asar syujetini qayta hikoyalay oladi”,

[3]Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 187-son qarori bilan tasdiqlangan.

“tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimini o‘zgalarga tushuntirib bera oladi” kabi “adabiy–nutqiy kompetensiyalar” sifatida nomlangan kompetensiyalar aslida nutqning o‘qib tushunish va gapirish ko‘nikmalariga tegishli kompetensiyalar bo‘lib, ona tili, ikkinchi til va chet tili darslarida rivojlantiriladi va bu kompetensiyalarni rivojlantirishda adabiy tushunchalar va adabiy tahlil usullari hech qanday rol o‘ynamaydi” degan xulosaga keladi. “Adabiy-nutqiy kompetensiya” tushunchasining o‘zi mavjud emas hamda bu tushuncha standart mualliflari tomonidan o‘ylab topilgan sun’iy atamadir deya o‘ta keskin hukm chiqaradilar va fikrlarini xorijiy manbalarga havola berish bilan dalillaydilar[4]. Yana ushbu darslik mualliflari “adabiy-nutqiy kompetensiyalar” ro‘yxatiga kiritilgan “badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko‘rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi” kompetensiyasini umuman nutqiy kompetensiya tarkibiga kirmasligini ta’kidlab, aktyorlik mahorati, plastika bilan bog‘liq kompetensiya ekanligini qayd etadi. Sahna nutqi, aktyorlik mahoartini namoyon qilishda nutq, to’gri va ta’sirchan so‘zlash, so’z va jumlalarni xatosiz talaffuz qilish namunali nutqqa xos xususiyatlar hisoblanadi. Balki standartni yaratgan ustozlar, metodit olimlar, adabiyotshunoslar kompetensiyaning ayanan mana shu jihatlarini e’tiborga olib shunday xulosaga kelgan bo‘lsalar kerak.

Umuman olganda, bugungi kungacha mavjud standartlarda belgilangan kompetensiyalar o‘quvchilarning Adabiyot fanidan bugungi bilim, ko‘nikma va malakalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etganligini ta’kidlash lozim. Ammo inson tafakkuridagi o‘zgarishlar, globallashuv, integratsiyallashuvga xos jihatlar ta’limga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. O‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar ham mazmun, mohiyat, ob’yektivlik, aniqlik jihatidan avvalgilardan farq qiladi. Pedagogikaga yangicha munosabat, ta’limga mutlaqo yangicha maqsadlar qo‘yilayotgani haqida Qozoqboy Yo‘ldoshev ham quyidagilarni yozgan edi: “ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek, ilg‘or pedagogik fikrlar taraqqiy topgan yurtlarda pedagogika fani va amaliyoti oldiga endilikda mutlaqo o‘zgacha maqsad qo‘yilmoqda. Bugungi ilg‘or pedagogikaning e’tibori mutaxassis tayyorlashdan shaxs shakllantirishga ko‘chgan. Ya’ni pedagogikaning diqqati tarbiyalanuvchi shaxsini har jihatdan kamol topdirishga, uni o‘ziga xos tarzda fikrlaydigan, mustaqil xulosalarga kela oladigan, o‘zganing qarashlariga moslashishni urinmaydigan, ijodkor, tashabbuskor, mas’uliyatni zimmasiga olishdan cho‘chimaydigan faol inson qilib shakllantirishga qaratiladi. ... Yangicha pedagogika o‘z oldiga o‘zi vazifa qo‘ya oladigan, biror qarorga kelishda birovning og‘ziga qarab turmaydigan, o‘zini o‘zi rivojlantiradigan, o‘z faoliyatini o‘zi nazorat qila biladigan yorqin shaxslik xususiyatlarini shakllantirish masalalari

[4] Bu haqida qarang. Mirzayeva Z. Jalilov K. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Fan Ziyo, 2024, 35-36-betlar

bilan shug‘ullanadi. Hozirgi zamonning muammolarini hal etish uchun bilimning o‘zi yetarli emasligi, hozir tarbiya muassasalarida shakllantirilayotgan shaxslar voqelikka ijodiy nazar bilan qaray bilishi, quyushqonlardan tashqarida fikrlay olishi muhimligi, xullaski, tarbiyalanuvchilarda kuchli shaxslik sifatlarining hosil qilinishi yangi pedagogik fikr uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir”[5]

Bulardan xulosa qilish mumkinki, sifatli ta’lim va o‘quvchi uchun manfatli bo‘lgan o‘quv dasturlari har jihatdan pishiq ta’lim standartlariga asoslanishi lozim. Boshqa fanlar qatorida Adabiyot fanidan yaratilajak standartlar ham qanchalik ob’yektiv, aniq, baholay olishi mumkin bo’lgan mezonlarga tayanilsa o‘quv dasturlari ham shu qadar konseptual, tizimli va maqsadli shakllantiriladi.

[5] Yo‘ldoshev Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2023-yil, 27-28 betlar